



ETHNIC COMPOSITION OF THE ILI REGION IN THE 60-80S OF THE 19TH CENTURY

Z. S. Shomansurova

Lecturer

*National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Timur, Tang Empire, Ili region, Dungans, Taranchis, Xibe, Daurs

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: In the 1860s–1880s, the ethnic composition of the Ili region was formed as a result of various international and domestic political processes, becoming complex and diverse. During this period, Uyghurs, Kazakhs, Dungans, and other ethnic groups lived in the area. The article provides information on the importance of paying attention to the number, location, and social status of these groups in order to understand the relevance of the ethnic composition.

XIX ASRNING 60–80-YILLARIDA ILI O’LKASINING ETNIK TARKIBI

Z. S. Shomansurova

O’qituvchi

*O’zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O’zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so’zlar: Temur, Tan imperiyasi, Ili o’lkasi, dunganlar, taranchilar, sibolar, daurlar.

Annotatsiya: XIX asrning 60–80-yillarida Ili o’lkasining etnik tarkibi turli xalqaro va ichki siyosiy jarayonlar natijasida murakkab va rang-barang bo‘lib shakllangan. Ushbu davrda hududda uyg‘urlar, qozoqlar, dunganlar va boshqa etnik guruqlar yashagan. Etnik tarkibning dolzarbligini tushunish uchun bu guruhlarning soni, joylashuvi va ijtimoiy ahvoliga e’tibor qaratish lozimligi haqida maqolada ma’lumot beriladi.

ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ИЛИЙСКОГО КРАЯ В 60–80-Х ГОДАХ XIX ВЕКА

3.С.Шомансурова

преподаватель

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Темур, Империя Тан, Илийский край, Дунгане, Таранчи, Сибы, Дауры

Аннотация: В 60–80-х годах XIX века этнический состав Илийского края сформировался в результате различных международных и внутренних политических процессов, став сложным и многообразным. В этот период на территории региона проживали уйгуры, казахи, дунгане и другие этнические группы. В статье представлена информация о необходимости учитывать численность, размещение и социальное положение этих групп для понимания актуальности этнической структуры региона.

Kirish: Sharqiy Turkiston aholisining etnik tarkibi haqida so‘z yurtilganda avvalanbor uning boy tarixiga nazar tashlash lozim. Ya’ni, bu hududlarda sibolar, mo‘g‘ulllar, xitoyliklar bilan bir qatorda dunganlar, uyg‘urlar istiqomat qilganlar. Dunganlar etnik tarkibi, diniy qarashlari uzoq vaqtlardan shakillangan bo‘lib, Jung’or xonligiga qadar Tan sulolasi hukmronligi davrida, VII asrda G‘arbdagi eng yaqin qo‘snilari - uyg‘urlar yoki oyxorlar bilan urushlar olib borganlar. Bu davrlarda ushbu hududni xitoyliklar hozirgi Qorashaharni Gao-Chan deb ataganlar. VIII asrga kelib kurash xitoylarning to‘liq g‘alabasi va Gao-Channing yo‘q qilinishi bilan yakunlangan. Ammo bundan keyin ham uyg‘urlar qo‘zg‘olon ko‘tarishga moyilligi kuchli bo‘lganligi sababli, Tan xonadonidan imператорлар bu xalqning bir qismini VIII asr oxiri IX asr boshlarida Xitoya ko‘chirganlar.

XIX asrning 60–80-yillarda Ili o‘lkasining etnik tarkibi haqida ilmiy tadqiqot olib borish uchun quyidagi yondashuvlarni qo‘llash mumkin:

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

1. Tarixiy manbalar: Ili o‘lkasining etnik tarkibi haqida ma’lumot beruvchi asosiy manbalar orasida Xitoyning Qing sulolasi davridagi rasmiy hujjatlar, Rossiya imperiyasining konsullik hisobotlari va sayohatchilarining kundaliklari mavjud. Bu manbalar o‘sha davrdagi aholi soni, etnik guruhlar va ularning joylashuvi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

2. Akademik tadqiqotlar: So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va dissertatsiyalar Ili o‘lkasining etnik tarkibi haqida chuqur tahlillarni taqdim etadi. Bu tadqiqotlar orasida mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari mavjud bo‘lib, ular arxiv materiallari va dala tadqiqotlariga asoslangan.

3. Xotiralar va og‘zaki tarix: O‘sha davrda yashagan shaxslarning xotiralari va og‘zaki tarix materiallari etnik guruhlarning kundalik hayoti, urf-odatlari va o‘zaro munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi:

1. Tarixiy tahlil: Arxiv hujjatlari, rasmiy statistikalar va boshqa yozma manbalarni o‘rganish orqali etnik tarkibning o‘zgarish dinamikasini aniqlash.

2. Kartografik tahlil: O‘sha davrga oid xaritalarni o‘rganish orqali etnik guruhlarning geografik joylashuvi va migratsiya yo‘nalishlarini aniqlash.

3. Og‘zaki tarix usuli: Mahalliy aholining og‘zaki rivoyatlari va xotiralarini yig‘ish va tahlil qilish orqali etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar va madaniy aloqalarni o‘rganish.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot natijalari Ili o‘lkasining XIX asrning 60–80-yillarida ko‘p millatli hudud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Asosiy etnik guruhlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Uyg‘urlar: Hududning tub aholisi bo‘lib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar.
- Qozoqlar: Ko‘chmanchi chorvadorlar bo‘lib, asosan dasht hududlarida yashaganlar.
- Dunganlar: Xitoydagi musulmon qo‘zg‘olonlari natijasida mintaqaga ko‘chib kelgan xitoy musulmonlari.
- Manjurlar va xitoylar: Qing sulolasini ma’murlari va harbiylari sifatida hududda mavjud bo‘lganlar.

Bu etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar murakkab bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarga bog‘liq edi. Masalan, Qing sulolasini siyosati natijasida ayrim etnik guruhlar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelgan, shu bilan birga savdo va madaniy almashinuv orqali hamkorlik rivojlangan.

Shunday qilib, XIX asrning 60–80-yillarida Ili o‘lkasining etnik tarkibi rang-barang bo‘lib, bu holat hududning siyosiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Zaxarovning so‘zlariga ko‘ra, Gansu va Shan-si provinsiyalarida 1000000 tagacha oila istiqomat qilgan. Ko‘chmanchilar buddizmning ashaddiy muxlislari edi. O‘sha paytda imperiyada hukmronlik qilgan Xitoy millatini mustahkamlash uchun Tan xonodonidan bo‘lgan imperatorlar muhojirlarning xitoylik ayollar bilan turmush qurishlarini rag‘batlantirganlar. Avvaliga buddaviylikga e’tiqod qilgan Sharqiy Turkiston aholisi Chingizzxonning Markaziy Osiyonini ishg‘ol etishidan so‘ng ushbu hududlarga kirib kelishiga zamin yaratdi. Masalan, Islom dini Kichik Buxorodan ko‘chirilgan uyg‘urlar orqali kirib kela boshlagan. U yerda Chingizzon avlodlaridan biri Ilidan Kuen-Lungacha bo‘lgan yerlarga egalik qilgan Tug‘luk-Temurxon islomni qabul qilgandan so‘ng islom dini asosiy din sifatida o‘rnatalgan. Shu bilan birga ushbu hududda islom

dini kerib kelishi, yoyilishi haqida ham turli fikrlar mavjud. Jumladan Tan imperiyasi davrida halifalikda elchlar kelgan bo‘lib, Xitoy yerlarida qolib ketgan, degan fikrlar ham mavjud.

Masalan, Sharqiy Turkistonning etnik qatlamlaridan biri bo‘lgan dunganlar haqida so‘z borar ekan, ularning etnik kelib chiqishi bilan bir qatorda Sharqiy Turkiston xalqining islom dininga e’tiqot qiluvchi aholi bo‘lganligi bois, bu hududlarga qachon islom dini kirib keganligi ham muhim hisoblanadi. Olimlar dungan xalqining kelib chiqishini turlichal talqin qiladilar. Ko‘pchilik ularni islom dinini qabul qilgan xitoyliklar, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga dunganlar orasida ularning arablardan kelib chiqqanligi haqida afsona bor. Chunonchi, Tan davri imperatori (618-907) tushida uni yirtqich maxluqdan yashil kiyimli yigit qutqarib qolganini ko‘rdi. Bashoratchilar unga yirtqich hayvon - bu ko‘chmanchi dushmanlar, yashil kiyimli yigit esa-imperiyani qutqaradigan g‘arbda paydo bo‘lgan yangi dinning rangi. Ular bo‘yicha kengashga ko‘ra, imperator Muhammad payg‘ambarning taklifiga binoan Arabistonga elchilar yuboradi. U imperatorga yordamga uch ming arab jangchisini yubordi. Ko‘chmanchilarga qarshi kurashda g‘alaba qozonildi. Shundan so‘ng, ularni ushlab turish uchun, imperator ularga xitoylik ayollarini xotinlikka bergen. Ularning avlodlari islomni qabul qilganlar va undan ajralib chiqdilar xitoyliklar o‘zlarini avval "luy-xuey-xuey," keyin "xuey-szu", deb ataydilar. Rus tilida "musulmon millati", degan ma’noni anglatadi.

Umuman olganda bu davrda aholi o‘rtasida islom dining yoyilishi shiddat bilan oshib bordi. XIV asrga kelib esa, Turkistonning sharqiy shaharlarida ko‘plab uyg‘ur amirlari Temurxonidan o‘rnak olganlar. Shuning uchun XIV asrning oxirini Buyuk devorga ko‘chirilgan uyg‘urlar orasida islomning tarqalish davri, deb hisoblash mumkin. Bu yerdagi aholi islom diniga, buddizmga e’tiqod qilgan imperiya hukumatiga dushmanona qarash mavjud bo‘lgan. Musulmon aholining xitoylik ayollarga uylanishi bilan birga farzandlarini islom dinida tarbiyalash huquqini saqlab qolganlar.

Shu o‘rinda Sharqiy Turkistonning etnik aholisi haqida so‘z yuritsa, Turkiston yig‘ma jildida G’uljadagi Rossiya imperiyasi konsuli Ivan Ilich Zaxarov dunganlarning etnik kelib chiqishi haqidagi bir qancha ma’lumotlar berib o‘tgan bor. Ya’ni, osiyolik olimlari dunganlar etnonimini quyidagicha ta’riflaganlar: 1764 yilda Jung’oriya Manjurlar tomonidan bosib olingandan so‘ng, Manjurlar hukumatini musulmonlarini Xoyxo‘y deb atashgan edi. Bog‘doxonning qizi esa uyg‘urlarning umumiyl nomi Xoy-gani Xoy-Xu, deb o‘zgartirishni so‘ragan. Shu bilan birga, yangi shahar barcha zabit etilganlarning ma’muriyati qarorgohi qilib tayinlandi. Ili vodiysida don yetishtirish uchun qulay hududda joylashgan shuning uchun Turfon va boshqa shaharlardan 7 ming sart oilasi bilan, 1765 yilgi qo‘zg‘olon uchun jazo sifatida, ko‘chmanchilar - taranchi ko‘chirilib keltirildi. Gan-su viloyatidan Ili dungan aholi punktlari ko‘rib chiqilgan va o‘sha paytda aholi Xitoy hukumatiga juda sodiq edi. Xitoylar ham Ilini doimiy

surgun joyiga aylantirdilar. Masalan, mo‘g‘ul qabilalarining sib ova daurlar ko‘chirildi. Ilining qarama-qarshi qirg‘og‘idagi aholi ya’ni, taranchi, dungan va sartlar (savdogar va hunarmandlar) bundan mustasno edi.

Aslida, Tan davrida (581-907-yillar) islom dinining Xitoyga kirib kelishi xueyszu yani dungan millatining bir qismi paydo bo‘lishining asosiy sababidir. Etnogrof N.N. Cheboksarov dunganlarning Tan davridagi arab ko‘chmanchilari va xitoy ayollari avlodlarining aralashuvi natijasida vujudga kelgan desa, V.M.Reshetov "Xueylarning etnik o‘ziga xosligi va ularning etnik birlashuvi darajasi haqida" risolasida "Shimoliy xueylar substrati qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, ularning shakllanishi xitoy tili va madaniyati asosida kechgan musulmon dinining kuchli ta’siri ostida", deb yozgan edi. Bu jarayon VII- XIII asr chegarasida sodir bo‘lgan", deb ta’kidlagan. Sun sulolasi davrida esa (906-1279-yillar) xalqaro savdo-sotiqning yirik aholi punktlarida arablar, forslar, turklar kabi ko‘p sonli musulmon jamoalari vujudga keldi. Bir necha asrlar davomida Xitoyga turli yo‘llar bilan kelgan musulmonlar turli sabablarga ko‘ra, vaqt o‘tishi bilan yakdillik asosida yagona xalqga birlasha boshladi. "Xitoydagи islom taqdiri, - deb yozadi M.V. Kryukov, V.V. Malyavin, M.V. Sofronov, - Diniy omilning ta’siriga ko‘ra Xitoy sivilizatsiyasi tarixida uning diniy sinkretizm tizimi bilan etnik birlik, ya’ni xitoylik musulmonlar tomonidan shakllanganligining noyob namunasidir", deb yozadi.

Turkiston to’plamidagi ma’lumotlarga ko‘ra, dunganlarning taxminiy sonini 1 000 000 dan ortiqroq, deb hisoblashadi. Ular imperiya bo‘ylab tarqalgan, asosan Gan-su, Shan-si, Sichuan, Yun-nan viloyatlarida va Tyan-Shanning shimoliy tarmoqlari bo‘ylab guruhlangan. Dunganlarning tashqi ko‘rinishi xitoycha qiyofada bo‘lib, xitoycha gapiradi va kiyinadi. Ular nihoyatda qattiqqo‘l va dindor musulmonlar ekanı ma’lum. Dunganlar sunniylar, lekin ular turli mazhablarga amal qiladilar: ba’zilari Imom Shofiya ta’limotiga, boshqalari Imom Hanifa ta’limotiga amal qiladilar. Dungan masjidlarida duolar arab tilida o‘qiladi, sharh va tushuntirishlar esa xitoy tilida. Dunganlar mo‘ylovlarini musulmoncha qirqadilar, sharob va aroq ichmaydilar, afyun va tamaki chekmaydilar. Markaziy Osiyoda ular o‘zlarining halolligi bilan mashhur, ayniqsa savdo-sotiq ishlarida. Xitoy hukumati, bu halollik natijasida, dunganlarni politsiya lavozimlariga o‘z xohishi bilan tayinladi. Dunganlar jahldor, mag‘rur va janjal paytida ular o‘zlari bilan olib yuradigan pichoqlarni ushlaydilar. Tashqi ko‘rinishiga ko‘ra, ular manjurlar va xitoylardan kuchli jismoniy tuzilishi va yuzi bilan ajralib turadi. Manjurlar hukumati hukumati musulmonlar ko‘p yashaydigan Gan-su provinsiyasidagi Salar jamoasining ishlariga aralashmagan. Bu jamoani dunganlarning ruhiy boshlig‘i ma’nosiga ega bo‘lgan imom boshqargan. Salar jamoasida 4000 ga yaqin masjid bo‘lgan.

Ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, dungan so‘zi "qaytgan" degan ma’noni anglatadi. Bu masalada taniqli bo‘yicha tadqiqotchi M.Ya.Sushanlo..." "Dungane" nomi Sinszyan

provinsiyasiga ichki Xitoydan kelgan ko‘chib kelgan laoxueyxuey nomi sifatida paydo bo‘lgan.. Ya’ni "dun-gan" bu geografik nomdan kelib chiqqan bo‘lib, Gansuning sharqiy qismiga oiddir.

Biroq, bu xitoyliklarning dunganlarga boshqa buddist fuqarolardan pastroq odamlar sifatida qarashiga to‘sinqilik qilmagan. Shuning uchun dunganlar nafaqat Xitoydagি hukmron xalqlar, balki bosib olingan boshqa qabilalar bilan solishtirganda ham ko‘p miqdorda soliqlarga tortilgan. Etimol, Manchjurlar hukumati dunganlar va imperiya shaharlarining qolgan aholisi o‘rtasida mavjud bo‘lgan keskin farqni susaytirmoqchi bo‘lgan. Shu boisdan iloji boricha, dungan hayotining urf-odatlari va ichki tartibini nazorat ostida tutishga harakat qilganlar. Shu tariqa ushbu asrning boshida imператор farmoniga ko‘ra dunganlar uzun sochlар kiyishlari, qizlari esa xunuk xitoy oyoqlariga ega bo‘lishlari kerak edi. Xuddi shunday, dunganlarni o‘z qizlarini musulmon bo‘lmagan xitoylarga turmushga berishga majburlash uchun bir qancha ma’muriy tajribalar o‘tkazilgan.

Dunganlar bilan bir qatorda Sharqiy Turkistonning qolgan aholisi haqida ham Turkiston yozma jildida ma’limotlar uchraydi. Masalan, Taranchilar soni bo‘yicha G’ulja o‘lkasining asosiy aholisini tashkil etganlar. Ular 2 tuman, ya’ni 20 000 hovli yoki oila(tuman - 10 000), deb hisoblanardi. Bu hisob-kitob xitoyliklar davriga tegishli, biroq Ili o‘lkasi aholisi qo‘zg‘olon va undan keyingi g‘alayonlar vaqtida keskin kamayib ketgan Shu sababli ushbu hisob-kitob yana ushbu vaqtga taalluqli hozirgi paytda hovlilar soni ancha kam va shuning uchun taranchi aholisi har ikkala jinsda 38 200 nafar kishidan oshmagan. Konsul Pavlinov o‘zining 1867-yilda yozgan bir xotiranomasida taranchilar sonini 120 000 kishi, deb ko’rsatadi. Ammo Qulja haqidagi ma’lumotlarni u asosan o‘z manfaatlarini ko‘zlagan Konsul Pavlipov xitoyliklardan olgan bo‘lgani uchun, uning baholashi xato hisoblanadi. Uning 120 000 kishi bor.

Sharqiy Turkistondan kelgan ko‘chmanchilardan o‘tib borar ekanlar, taranchilar qashqarliklar bilan bir xil tillarda so‘zlashadilar. Ularning xalqi qirg‘iz va Qo‘qon sartlari tilidan sezilarli darajada farq qiladi va qora qirg‘izlarga yaqin turadi. Urf-odatlari va turmush tarzi sartlarnikiga o‘xshaydi. Bulardan tashqari, o‘troq aholi punktida sibo, ya’ni Ilining chap qirg‘og‘idagi 7 ta shaharcha yoki teksliklarda yashovchi mo‘g‘ul qabilasining xitoy harbiy ko‘chmanchilariga mansub bo‘lib, ularning soni 15 448 nafar, deb hisoblanadi. Sibolar lamaiylar diniga e’tiqod qilganlar. Bu xalq juda mehnatsevar, lekin Xitoy tabaqasiga mansubdir. Xitoyliklar barcha harbiy ko‘chmanchilarni: solonlar, daurlar va sibolarni 10 ming nafargacha, deb hisoblashgan (konsul Pavlitsov ma’lumoti).

Sharqiy Turkiston aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. G.Ginz Rossiya imperiyasi hududuga ko‘chib brogan dunganlarga ta’rif berar ekan: "Ularning yerga bo‘lgan muhabbatи kiyim-kechak, poyabzal va uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezagan bezaklarda o‘z aksini topgan edi", deb aytadi. Yerga bo‘lgan muhabbat dunganni ma’lum bir joyga bog‘laydi,

u qishloq aholisi o‘z hayotini tasavvur qila olmaydigan tayanchdir. Yerda ishlash oilaviy an’analar: kattalarni hurmat qilish, kichiklarni qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liq. Bu, o‘z navbatida, islom dini qoidalari - "ona oyoqlari ostidagi jannat" naqli bilan bog‘liq. Shunday qilib, barcha shart-sharoitlar - bir qishloqda birga yashash, har bir inson kaftdek, chuqur e’tiqod, yerga muhabbat - bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va bir-biriga o‘zaro ta’sir qilgan.

Xulosa qilb aytganda XIX asrning 60–80-yillarida Ili olkasi etnik jihatdan xilma-xil va murakkab hudud bo‘lgan. Har bir etnik guruh o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘rniga ega bo‘lib, bu o‘rin geosiyosiy o‘zgarishlarga qarab shakllangan. Sin va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi raqobat, uyg‘urlar va dunganlarning qo‘zg‘olonlari va mahalliy xalqning o‘z an’analarini saqlab qolish uchun olib borgan kurashi hududning demografik va madaniy o‘ziga xosligini ta’minlagan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Туркестанский сборник том 60.
2. Туркестанский сборник том 5
3. Роль Ислама в консолидации этноса Дунган в конце XIX и начале XX веков.

Муратов. И.К. Вестик КНУ им. Ж. Баласагына.

http://lib.knu.kg/files/2011/vesnik_1_KNU2011.pdf#page=203

4. К вопросу генеиса, формирования и развития дунганской волшебной сказки” Исмаева. Р. М. М.н.е Национальной академии наук Кыргызской Республики. 2016 г. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-genezisa-formirovaniya-i-razvitiya-dunganskoy-volshebnoy-skazki/viewer>

5. Условия сохранения национальной идентичности дунган в условиях глобализации. Машанло. К. Исследователь. 2019 г. Ст 270.

6. Моисеев В.А. Россия и Китай в Центральной Азии (вторая половина XIX в.-1917гг.). – Барнаул, 2003.

7. Хохлов А.Н. Дунганское восстанием в Китае 1860-1870-х годов и поездка академик в В.П. Васильева в Кульджу в 1890 году. <https://cyberleninka.ru/article/n/dunganskoe-vosstanie-v-kitae-1860-1870-h-godov-i-poezdka-akademika-v-p-vasilieva-v-kuldzhu-v-1890-godu/viewer>

8. О дунганаах см.: Народы Восточной Азии. М.,-Л., 1965. Гл. 1. С. 419-433; Сушанло М. Очерки истории советских дунган. Фрунзе, 1967.

9. Гейнс А.К. О восстании мусульманского населения или дунгеней в Западном Китае//Известия ИРГО. Т. 2. Вып. 3. 1866. С. 75-96; Поярков Ф. Последний эпизод дунганского восстания. Верный, 1901; Сушанло М. Дунганское восстание во второй половине XIX века и роль в нем Бай Янь-ху. Фрунзе, 1959.

10. Туркестанский край: 1865 г. Т. XIX. Ч. 1. Ташкент, 1914. Док. N 52.